

# UY-JOY QURILISHIDA IMKONIYATLARDAN TO‘LA FOYDALANILSA, NATIJADORLIK BUNDAN-DA YAXSHI BO‘LADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-yanvar kuni ipoteka dasturi doirasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

O‘tgan yili yurtimizda jami 40 million kvadrat metrdan ziyod bino-inshootlar qurilgan. Jumladan, 100 mingdan ziyod xonadonga ega 2 ming 44 ta ko‘p qavatli uylar bunyod etilgan.

Bu faqat ijtimoiy yoki qurilish masalasi emas, balki hududlar iqtisodiyotida yana bir drayver bo‘lmoqda. Xususan, mazkur uylarni barpo etishda va yondosh tarmoqlarda 350 ming odam ish bilan ta‘minlangan. Mebel, elektrotexnika, to‘qimachilik, qurilish materiallari sohalarida qo‘shimcha 11 trillion so‘mlik bozor paydo bo‘lgan. Iqtisodiyotda 73 trillion so‘m mablag‘ ayalanib, byudjetga 14 trillion so‘m tushgan.

Sohani rag‘batlantirish uchun 2024-yilda 59 ming odamga 17 trillion so‘m ipoteka krediti ajratilgan. Quruvchi va developerlarga aylanma mablag‘ uchun jami 3 trillion so‘m berilgan.

Imkoniyatlardan to‘la foydalanilsa, natijalar bundan-da yaxshi bo‘lardi. Lekin Qoraqalpog‘iston, Jizzax va Sirdaryoda ayrim loyihalar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan. Ba‘zi viloyatlarda auksionda sotib olingan o‘nlab yerlarda qurilish boshlanmagan. Aholi va infratuzilmadan uzoq joyda qurilgani uchun 781 ta xonadon sotilmagan.

Davlatimiz rahbari, ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” massivlaridagi ishlarining borishidan noroziligini bildirdi.

— “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish bu — Prezident siyosati. Ular bilan hududlar obod bo‘ladi, madaniyat, ma‘rifat, dunyoqarash o‘zgaradi, savdo va xizmatlar ko‘payadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois, bu borada yangi tartib belgilandi. Endi “Yangi O‘zbekiston” massiviga ajratilgan yer bo‘yicha loyihalash 2 oydan oshmasligi, 3 oy ichida qurilish boshlanishi kerak. Bu talab buzilsa, yer qayta auksionga chiqariladi. Loyiha ko‘pi bilan o‘n besh kunda ekspertizadan o‘tkaziladi.

Bu yil ushbu massivlar infratuzilmasi uchun 1,2 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Qurilishda “eskrou” tizimi joriy qilinishi bilan developerlarga hozirigidan pastroq stavkada 1 milliard dollar aylanma mablag‘ jalb etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Muhimi, ularni moliyalashtirish uy qurish bilan birga boshlanadi va davom etadi. Fuqarolar esa qurilish boshidan ipoteka va subsidiya olish, uy bitmasdan ham boshqa odamga sotish imkoniga ega bo‘ladi.

Ishonchli developerlar uchun yana bir imkoniyat: imoratning 50 foizi qurilganda fuqarolar kredit va subsidiya olishi mumkin bo‘ladi. Ushbu tartib nafaqat imtiyozli, balki tijorat ipoteka kreditlari uchun ham tatbiq etiladi.

Quruvchi tashkilotlar qurilish boshlaganidan yakunlagunicha, lekin ko‘pi bilan 12 oy davomida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Obyekt muddatida topshirilmasa, developer yer solig‘ini 2 karra miqdorda to‘laydi.

“Yangi O‘zbekiston” massivi uchun ajratilgan yerning 10 foizi developerlarga tijorat binolari qurish uchun yagona lot sifatida savdoga chiqariladi. Uylarning 1-2-qavatida xususiy bog‘chalar ochish qo‘llab-quvvatlanib, mulk solig‘idan ham ozod etiladi.

Umuman, 2030-yilgacha 100 ta “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilishi rejalashtirilgan. Buning uchun yerlar kamida 70 ming odam yashaydigan tuman markazi yoki shahar hududiga 1-2 kilometr masofadagi joydan ajratiladi. Bu massivlarning har birida 100 ming kvadrat metrli 2 mingta xonadon quriladi.

Ishlarni sifatli tashkillashtirish uchun zamonaviy menejerlardan iborat “O‘z uyim” kompaniyasi tuziladi. Ushbu kompaniya “Yangi O‘zbekiston” massivlariga, ihsizlik rivojlanmagan, ihsizlik yuqori bo‘lgan agrar hudud hisoblangan. Tumanda barmoq bilan sanarli sanoat korxonasi bor edi.

Qurilish sifati va nazorati masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Endi bu jarayonlar soddalashtirilishi qayd etildi.

Jumladan, binokorlar “Shaffof qurilish” platformasi orqali tayyor loyihani idoralar bilan onlayn kelishadi. Inshootning loyihaga mosligini Qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tekshiradi va bitganidan keyin xulosa beradi. Zarur hollarda boshqa sohadagi mutaxassislarni jalb qiladi. Qurilish davomida zilzilaga bardoshlilikni sinovdan o‘tkazgan laboratoriyaning o‘zi oxirida qo‘shimcha haq olmay xulosa beradi. Binoni foydalanishga topshirishda hozirgi 7 ta idora o‘rniga faqat 2 ta — Qurilish inspeksiyasi va yong‘in xavfsizligining xulosasi yetarli bo‘ladi.

Ma‘lumki, yaqinda Toshkent shahrini Bosh rejasi tasdiqlandi. Endi arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i va qurilishga ruxsat berish jarayonini birlashtirib, bunga ketadigan vaqtni 2 karra qisqartirish zarurligi aytiladi. Bu tizim kelgusi yildan boshqa viloyatlarda ham yo‘lga qo‘yiladi. Yer olishdan boshlab, binoni foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan har bir bosqich ko‘rinib turadigan raqamli tizim yaratiladi.

Sohaga salohiyatli developerlarni jalb qilish maqsadida bundan buyon ko‘p qavatli uy qurish uchun yerlar auksionda faqat QQS to‘lovchi yuridik shaxslarga sotiladi.

Bugungi kunda 15 mingga yaqin ko‘p qavatli uylarga tutash maydon mulkdorga birkiritilmagani sababli boshqaruv-servis kompaniyasi xizmat ko‘rsatadigan hududlar chegarasi ma‘lum emas. Bunday joylarni aniq belgilab, kompaniyalarga birkiritish, daraxtlar ekib, atrof-muhitni asrash yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Bu boradagi shartnomaviy munosabatlar va yashil hudud bo‘yicha me‘yorlarni qonun bilan mustahkamlash zarurligi ta‘kidlandi.

Joriy yilda mamlakatimizda 120 ming xonadonli ko‘p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Yangi Toshkentda 15 ming xonadon barpo qilish ko‘zda tutilgan. Bu uylarda “yashil” energiyadan foydalaniladi. Energiya barqarorligini ta‘minlash uchun xususiy sheriklik asosida 100 megavatt-soat sig‘imli elektr saqlash quvvati o‘rnatiladi.

Yangi Toshkentdagi uylarni isitish va sovutish markazlashgan “uch generatsiya” tizimi orqali bo‘ladi. Buning hisobiga yoz mavsumida elektr sarfi 4 karra qisqaradi. Barcha bino-inshootlarga yuqori energiya samaradorlik talablari joriy qilinadi. Transport, yoritish tizimlari va zaryadlash stansiyalari faqat “yashil” texnologiyalar asosida bo‘ladi.

Eski uylarni renovatsiya asosida yangilash masalasiga ham e‘tibor qaratildi.

Bunda yerdan foydalanish samaradorligi 4-5 karra oshadi, kommunikatsiya xarajati 2 karra kamayadi. Asosiysi, bu orqali shu hududdagi odamlarning dunyoqarashi o‘zgaradi, turmush tarzi tubdan yaxshilanadi, ish o‘rni ko‘payib, iqtisodiyot rivojlanadi.

Jizzax, Marg‘ilon, Qo‘qon, Shahrisabz, Qarshi shaharlari, Do‘stlik va poxtat tumanlarida shunday ishlar boshlangan. Bu bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham amalga oshiriladi.

Bu yil uy-joy dasturlarini moliyalashtirishga byudjetdan 15 trillion 500 milliard so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan. Banklar tomonidan bunga qo‘shimcha 10 trillion so‘m, “Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” tomonidan 2,3 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Buning yordamida 70 mingta xonadonning ipoteka krediti orqali sotilishiga sharoit yaratiladi. Shundan 30 ming xonadon boshlang‘ich badaliga byudjetdan subsidiya to‘langan holda, daromadli yuqori bo‘lmagan oilalarga beriladi.

Yig‘ilishda viloyat hokimlari “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilishi, ipoteka va renovatsiya loyihalari bo‘yicha axborot berdi.

O‘ZA

## SAMARALI HAMKORLIK BARCHA USTUVOR YO‘NALISHLARDA JADAL RIVOJLANIB BORMOQDA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23-yanvar kuni Yevropa Kengashi Prezidenti Antoniu Koshta bilan bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotida ikki tomonlama va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.**

O‘zbekiston Prezidenti Antoniu Koshta Yevropa Kengashi rahbari lavozimiga saylangani bilan samimiy tabriklab, unga katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik yuksak darajaga ko‘tarilgani va barcha ustuvor yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turli darajalarda faol muloqot va almashinuvlar olib borilmoqda. 2024-yilda O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 6 milliard yevrodan oshdi, Yevropa kompaniyalari bilan loyihalar portfeli 30 milliard yevroga yetdi.

O‘tgan yili o‘ta muhim mineral resurslar sohasida strategik sheriklik to‘g‘risida bitim imzolandi. Transport

va raqamli o‘zaro bog‘liqlik, “yashil” iqtisodiyot, madaniyat va boshqa yo‘nalishlarda samarali hamkorlik olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning tez fursatda imzolanishi o‘zaro munosabatlarning butun majmuini rivojlantirishga jiddiy turkib to‘lishiga ishonch bildirildi.

O‘zbekiston yetakchisi va Yevrokengash rahbari xalqaro kun tartibi va mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar. Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha qo‘shma rejalar muhokama qilindi.

O‘ZA

## “YASHIL” TADBIRKOR MAQOMI qo‘shimcha ball va imtiyozlar beradimi?

O‘zbekistonda eng ko‘p tilga olinayotgan iboralarining aksariyati “yashil” so‘zi bilan bog‘lanmoqda. 2019-yildan boshlab mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish harakati faollashgan bo‘lsa, o‘shandan buyon “yashil” energetika, “yashil” makon, “yashil” shaharsozlik kabi so‘zlar lug‘atimizga faol kirib keldi. Joriy yil boshidan esa bunday atamalar qatoriga yangilari qo‘shilyapti. Xususan, endi yurtimizda ishbilarmon doira vakillariga “yashil” tadbirkor maqomini berish yo‘lga qo‘yiladi.

Davomi 3-betda

## Prezident tashabbusi amalda

# UYCHI TAJRIBASI: EZGU AMALLAR, XAYRLI ISHLAR BILAN AJRALIB TURADI

**Ko‘hna Norin daryosining shimoliy sarhadlari bilan tutashgan Uychi tumani yaqin yillargacha iqtisodiy jihatdan qoloq, infratuzilma tarmoqlari rivojlanmagan, ihsizlik yuqori bo‘lgan agrar hudud hisoblangan. Tumanda barmoq bilan sanarli sanoat korxonasi bor edi.**

Keyingi yillarda bu yerdagi holat, aholi hayot tarzi, dunyoqarashi o‘zgardi. Uychi tumani tadbirkorlik, ishbilarmonlik, sanoat salohiyati rivojlangan hudud sifatida ko‘pning e‘tibori va e‘tirofiga tushdi. Ravon yo‘llar, katta-kichik ishlab chiqarish korxonalari, muhtasham bino va inshootlar tumanning yangi “tashrif qog‘ozi” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tuman ihsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylandi. Bu yerga keluvchi, mavjud sharoit va amaliy ishlar bilan o‘rtoqlashayotgan, tajriba almashayotganlar ko‘paydi. Bu bejiz emas, albatta.

Prezidentimiz o‘tgan yilning 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga qilgan amaliy tashrifi chog‘ida nisbatan og‘ir hudud bo‘lgan Uychi tumanini ihsizlikdan xoli hududga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni namuna sifatida ko‘rsatib, uni ommalashtirish taklifini ilgari surdi.

Davomi 4-, 5-betlarda





# TIBBIYOT TRANSFORMATSIYASI

## Ushbu maqsadlar uchun davlat hisobidan 200 milliard so‘m ajratilgan

Xalqaro andozalar darajasida tibbiy xizmat ko‘rsatadigan tizimni yo‘lga qo‘yish, xalqimizni yanada sog‘lomlashtirish va roziligiga erishish bilan bog‘liq ko‘plab muhim vazifalar bugun ham kun tartibida. Ayni maqsad yo‘lida sog‘liqni saqlash tizimi yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayapti. Tizimdagi inson salomatligi, yashash huquqini ta‘minlash bilan bog‘liq islohotlar bugun har bir xonadonga kirib bormoqda. Fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati kengaytirilyapti va bu xayrli ishlar yangi bosqichda davom ettirilmoqda. Soha oldiga bu borada jiddiy vazifalar qo‘yilgan.

Xususan, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish — eng asosiy talablardan biri.

O‘tgan vaqt davomida bu borada e‘tiborga molik ishlar qilindi. Shifoxonalar zamonaviy uskunalar bilan ta‘minlanmoqda. Buning uchun byudjetdan har yili yetarlicha mablag‘ ajratilyapti.

Natijada oldin faqat respublika muassasalarida bo‘lgan kompyuter tomografi, magnit rezonansli tomograf, angiograflar hozir viloyatlarda, tumanlarda ham bor. Bu ixtisoslashgan xizmat aholiga yanada yaqinlashdi, degani.

Joriy yil tibbiyot tizimidagi transformatsiya jarayoni butunlay yangi bosqichga ko‘tarilishi kutilmoqda. Ushbu maqsadlar uchun davlat hisobidan 200 milliard so‘m ajratilgan. Shuningdek, tibbiyotga 370 million dollar xorijiy investitsiya kiritilishi mo‘ljallangan. Bu aholi salomatligiga eng ustuvor vazifa sifatida qaralayotganiga bir misol.

Davlatimiz rahbari 20-yanvar kuni tibbiyot muassasalarini jihozlash va xizmatlar sifatini oshirishga doir takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda tibbiyot muassasalarini jihozlash va malakali mutaxassislarni hozirdan tayyorlash masalalari bo‘yicha rejalar bayon qilindi.

— Tibbiyot sohasiga investitsiya jalb qilish bo‘yicha ikkita loyihani taqdimot qildik, — deydi sog‘liqni saqlash vaziri Asilbek Xudoyorov. — Birinchi loyihamiz Orolbo‘yi mintaqasida aholi salomatligini tiklash va tibbiyot muassasalari moddiy-

texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan. Loyiha doirasida Germaniyaning KfW bankining 30 million yevro mablag‘i hisobiga Qoraqalpog‘iston va Xorazmdagi 19 tadan tibbiyot muassasasi yurak-qon tomir kasalliklarini davolovchi uskunalar



bilan jihozlanadi. Bunday kasalliklarning oldini olish, diagnostika qilish va yuqori texnologik asbob-uskunalaridan foydalangan holda Orolbo‘yi mintaqasida aholiga hududning o‘zida malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

Ajratiladigan kredit va grant mablag‘lari yo‘nalishi bo‘yicha Xorazm viloyatiga 95 turdagi 588 ta va Qoraqalpog‘iston

Respublikasiga 66 turdagi 274 ta asbob-uskuna ajratiladi.

Shuningdek, mamlakatimizning tog‘li, cho‘l hududlarini maxsus yo‘l tanlamas 70 ta tez tibbiy yordam avtomashinasi bilan ta‘minlash ko‘zda tutilyapti. Qoraqalpog‘iston va Xorazmdagi tibbiyot muassasalarini yuqori texnologik diagnostik va davolash asbob-uskunalar bilan ta‘minlash birinchi komponent hisoblanadi. Ikkinchi komponentni yurak-qon tomir, neyroxirurgiya, oftalmologiya yo‘nalishidagi kasalliklarning oldini olish maqsadida birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarini zarur asbob-uskunalar bilan ta‘minot tashkil qiladi.

Uchinchi komponent esa yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa yo‘nalishlardagi



klirik ko‘nikmalarni takomillashtirish, boshqaruv salohiyatini mustahkamlash, tibbiyot birlashmasi rahbarlari, muassasalar bosh shifokorlari, menejerlariga va tor soha mutaxassislariga alohida o‘quv kurslari o‘tkazilishi mo‘ljallangan. Mazkur loyihani amalga oshirish natijasida aholining salomatlik ko‘rsatkichini ko‘tarish va diagnostik aniqligini takomillashtirish maqsad qilingan.

Germaniya KfW bankining granti bilan Termiz shahrida o‘quv markazi, talabalar turar joyi quriladi. Bu markaz zamonaviy o‘quv-simulyatsiya va axborot texnologiyalari bilan jihozlanadi.

Ammo kadrlar salohiyati yuqori bo‘lmasa, ko‘zlangan maqsadga erishish mushkul. Shu bois, malakali tibbiyot xodimlarini yetishtirish uchun tibbiy ta‘limni to‘liq transformatsiya qilish zarur.

**Davlatimiz rahbari jihozlash masalaning faqat bir qismi ekani, ularda ishlay oladigan malakali mutaxassislarni hozirdan tayyorlash kerakligini ta‘kidladi. Tegishli muassasalardagi shifokor va hamshiralarni qo‘shimcha o‘qitish vazifasi qo‘yildi.**

Termiz shahrida 1,6 gektar hududga ega, har yili 100 nafar mahalliy va 200 nafar afg‘onistonlik talabani o‘qitishga mo‘ljallangan tibbiyot ta‘lim maskani barpo etiladi. O‘quv-simulyatsiya markazida nafaqat Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabalari, balki Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari ham malaka oshirishi mumkin. O‘qish Germaniya texnologiyalari va dasturlari asosida tashkil qilinadi.

Yig‘ilishda uskunalaridan samarali foydalanish muhimligi ham aytib o‘tildi. Masalan, viloyatlarda angiograflar yuklamasi o‘rtacha 34 foiz. Tomograf bo‘yicha holat ham har xil. Shu bois, hokimliklar bilan birga davlat shifoxonalaridagi yuqori texnologik uskunalaridan samarali foydalanish bo‘yicha autorsing va xususiy sheriklik loyihalari yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi salomatligiga qaratilayotgan yuksak e‘tibor tibbiyot sohasidagi islohotlarning barcha hududlarga yetib borayotgani, tibbiy xizmatning xalqqa yaqinlashtirilgani misolida o‘z ifodasini topmoqda. Bir paytlar eng ilg‘or xorijiy mamlakatlar klinikalari, keyinchalik poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik amaliyotlar endi olis hududlarda ham bosqichma-bosqich joriy etilyapti. Sog‘liqni saqlash tizimidagi yangilanishlar inson salomatligini asrash, uning yashash huquqini ta‘minlash orqali roziligiga erishishdek maqsadni o‘zida mujassam etgani bilan ahamiyatli.

**Risolat MADIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# QARIYB 24 KILOMETR

## BAYTQO‘RG‘ON — PARKENT ELEKTRLASHTIRILGAN TEMIR YO‘LI QURILISHI BOSHLANDI

So‘nggi paytlarda mamlakatimiz temir yo‘l tizimida taraqqiyotga xizmat qiluvchi, odamlarga qulaylik yaratuvchi ko‘p loyihalar ro‘yobga chiqarilyapti. Jumladan, o‘tgan yili Qoraqalpog‘iston Respublikasini Xorazm viloyati bilan bog‘lovchi 85 kilometrli Shovot — Qorao‘zak yangi temir yo‘l liniyasi hamda Amudaryo ustidan o‘tuvchi 423 metrli temir yo‘l va avtomobil yo‘li ko‘prigi foydalanishga topshirilgani katta mamnuniyat bilan qarshi olingandi. Chunki mazkur loyiha tufayli harakat masofasi 156 kilometrga qisqardi. Shuningdek, loyihaga muvofiq, qator yondosh inshootlar, barcha qulayliklarga ega Gurlan va Mang‘it temir yo‘l vokzallari barpo etildi. Bu yuzlab kishilar bandligini ta‘minlashga, qishloqlar infratuzilmasi yaxshilanishiga katta hissa qo‘shdi.



Hozir ushbu ko‘prik orqali bir kunda o‘rtacha 12 mingta avtomobil hamda 24 juft poyezd qatnovi amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani tog‘li hududlariga sayyohlar va mahalliy aholi yetib borishiga qulay transport tizimini yaratish maqsadida amalga oshirilgan loyiha — uzunligi 68,6 kilometrga teng Toshkent — Chirchiq — Xo‘jakent stansiyalari bo‘ylab tezyurar elektropoyezdlar harakati yo‘lga qo‘yilgani ham yil voqealaridan biri bo‘ldi. Mazkur loyihalar natijasida, eng avvalo, turizm salohiyati va jozibadorligi oshib, yuk va yo‘lovchi tashish tezligi bir necha barobar ko‘payadi, odamlarga xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi. Ekologiya va atrof-muhit musaffoligi saqlanadi.

O‘zbekiston bugun iqtisodiyoti rivojlangan, savdo aloqalari tobora kengayib borayotgan, investor va sayyohlar uchun jozibador mamlakat sifatida tanilmoqda. Tabiiyki, bu zarur infratuzilmalarni talab etadi. Shu bois, Toshkent viloyatida Baytqo‘rg‘on — Parkent

elektrlashtirilgan temir yo‘li liniyasi qurilishi boshlangani juda muhim. Chunki ushbu loyiha tufayli poytaxt viloyatining so‘lim go‘shalariga boradigan sayyohlar, mahalliy aholi va mehmonlar uchun qulaylik yaratiladi. Xavfsiz va zamonaviy transport qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Bu yo‘llardagi tirbandlikni kamaytirib, ortiqcha noqulayliklarning oldini oladi.

Loyihalash ishlari “Boshtransloyiha” aksiyadorlik jamiyati, qurilish ishlari esa temiryo‘lchi mutaxassislar tomonidan bajarilayotgan Baytqo‘rg‘on — Parkent elektrlashtirilgan temir yo‘li umumiy uzunligi 23,8 kilometrni tashkil etadi. Loyiha doirasida 2 ta ajratish punkti, 4 ta ko‘prik, 2 ta yo‘l o‘tkazgich, 1 ta tunnel turidagi yo‘l o‘tkazgich, 78 ta suv o‘tkazish inshooti, 7 ta avtomobil yo‘li va temir yo‘li kesishmasi qurilishi rejalashtirilgan.

**Dilshod ULUG‘MURODOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# Bugunning gapi

# CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK

## zamonaviy talablar hamda iqlim o‘zgarishlariga moslashuv

O‘zbekiston zamini qulay iqlim va ulkan yer resurslari bilan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda katta imkoniyatga ega. Parrandachilik va yaylov yerlardan oqilona foydalanish bu sohada muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu tarmoqlar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo‘shadi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va ekologik resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiyot rivojiga turtki beradi.

Xususan, parrandachilik qishloq xo‘jaligining eng samarali tarmoqlaridan biri, qator afzalliklarga ega. Shu bois, sohani modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ozuqa sifatini oshirish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda katta maydonni egallagan yaylovlar bor. Ular chorvachilik uchun muhim manba. Eng yaxshi xalqaro tajribaga ko‘ra, yaylovlarni boshqarish samaradorligini oshirish, jumladan, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, yangicha yondashuvlarni joriy etish va fermerlarning bilimini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur.

Davlatimiz rahbari 21-yanvar kuni parrandachilikni rivojlantirish va yaylovlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda mahsuldorlik izchil oshib bormoqda. Bu sur‘atni davom ettirib, joriy yilda 1 million tonna parranda go‘шти, 10 milliard 500 million dona tuxum yetishtirish mo‘ljallangan.



o‘zida birlashtiradi. Muhimi, klasterlar faoliyati parrandani yetishtirishdan to uni qayta ishlashgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, aholi xonadonlarida kooperatsiya tizimi asosida parranda yetishtirish masalalari ham muhokama qilindi. Jumladan, bu bo‘yicha qator xorijiy tajribalarni o‘rganish va yurtimizda joriy etish yuzasidan topshiriqlar berildi. Joriy yilda bir million aholini sohaga jalb etish choralari ko‘riladi. Yil so‘ngigacha eksportni 2 karra oshirib, 180 million dollarga olib chiqish ko‘zda tutilmoqda.

Ayni paytda yurtimizda go‘sht yo‘nalishidagi parrandaning 1-tartibli genetikasini tashkil qilish boshlangan.



**“Parrandachilikni rivojlantirish va yaylov yerlardan samarali foydalanish O‘zbekistonda barqaror o‘sishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Sohadagi islohotlar esa aholi bandligini ta‘minlash bilan birga, daromadini oshirishga ham xizmat qiladi.”**

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda endi buni tuxumchilik bo‘yicha ham yo‘lga qo‘yish mo‘ljallanmoqda. Parrandachilik kooperatsiyasi bo‘yicha Andijon, Namangan, Samarqand va Xorazmda yaxshi tajribalar bor. Bunda ham odamlar daromad topyapti, ham parrandachilik korxonalarining ishi yurishyapti. Vaqtincha to‘xtab qolgan yoki kam quvvatda ishlayotgan parrandachilik korxonasini moliyaviy sog‘lomlashtirib, faoliyatini yaxshilash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Taqdimotda yaylovlardan samarali foydalanish borasida qator vazifalar belgilandi. Chorvachilikda 1350 ta loyihani ishga tushirib, 3 million 200 ming tonna go‘sht yetishtirish, 13 million tonnadan ziyod sut olib, uning 30 foizini sanoat usulida qayta ishlash hisob-kitob qilingan.

— Davlatimiz rahbari tomonidan yaylov xo‘jaliklarida jun va go‘sht yo‘nalishida qo‘y va echkilarni ko‘paytirish hamda aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha qator vazifalar belgilandi, — deydi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi raisi Bahromjon Norqobilov. — Buning uchun joriy yilda Mo‘g‘uliston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiyaning Oltoy o‘lkasidan 300 ming bosh qo‘y va echki olib kelishni rejalashtiryapmiz. Bu borada bizda tajriba bor. O‘tgan yili ham chetdan 271 ming bosh naslli qo‘y olib kelingan.

Shu bilan birga, joriy yilda chorvachilikni rivojlantirish uchun besh trillion so‘mlik 1350 ta loyiha amalga oshiriladi. Bugun bu loyihalar har bir tuman va viloyat kesimida shakllangan.

Qayd etilganidek, ayni paytda mavjud yaylovlarning deyarli yarmidan

foydalanilmayapti. Negaki, yaylov o‘simliklari urug‘chiligi rivojlanmagan, suv inshootlari va quduqlar yetishmaydi. Bunday maydonlarning xaritasi va ijarasi raqamlashtirilmagan.

Bugungi kunda 16 million gektar yaylov mavjud. Endi mazkur yaylovlar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tizimiga o‘tkazildi. Shu bilan birga, degradatsiyaga uchragan 47 foiz yaylovlarda iqlim sharoitimizga mos, suvsizlik va qurg‘oqchilikka chidamli ozuqabop ekinlar ekish hisobiga hosildorligini oshirish, qo‘shimcha quduqlar qazish va yaylov urug‘chiligini tashkil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ayni maqsadda joriy yilda bir million gektar yaylovda Turkiya, Mo‘g‘uliston, Portugaliya va Ispaniya kabi davlatlar ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaylov xo‘jaliklarida ozuqabop ekinlar yetishtirish bo‘yicha ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Ana shu asosda milliy dastur ishlab chiqiladi. Asosiy maqsad — yemi degradatsiyadan chiqarish va boqiladigan qo‘ylar bosh sonini 30 foiz oshirish. Natijada qo‘ylar bosh soni 4 millionga oshadi. Bu yil 500 ming gektar yaylovda 1 million bosh qo‘yni tartibli boqish bo‘yicha namunaviy loyiha amalga oshiriladi.

Yana bir muhim jihat. Endilikda “E-yaylov” elektron xaritasi ishlab chiqilib, har bir maydon ushbu tizimga kiritiladi. Unda chorva, ekin yoki geologiyaga mo‘ljallangan joylar aniq namoyon bo‘ladi. Bunday maydonlar eng ko‘p bo‘lgan 7 ta viloyatda yaylov xo‘jaliklari tashkil qilinadi. Ular o‘rmon xo‘jaliklari kabi yaylovlarni asrash va samarali foydalanishga mas‘ul bo‘ladi. Yaylov xo‘jaliklaridagi yerlar auktsion orqali chorva boqish, pista, bodom kabi ko‘chatlarni ekish uchun aholiga 30 yilga ijaraga beriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, parrandachilikni rivojlantirish va yaylov yerlardan samarali foydalanish O‘zbekistonda barqaror o‘sishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Sohadagi islohotlar esa aholi bandligini ta‘minlash bilan birga, daromadini oshirishga ham xizmat qiladi.

**Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



# “YASHIL” TADBIRKOR MAQOMI

## qo‘shimcha ball va imtiyozlar beradimi?

### Yangi maqom kimlarga beriladi?

“Yashil” tadbirkor maqomiga ega bo‘ladigan biznes vakillari ana shu jihatlariga e‘tiborli bo‘lishi, ekologiyaga zarar yetkazishdan tiyilishi, aksincha, atrof-muhitni asrashga hamdan ko‘p hissa qo‘shib, tabiatning ifloslanishiga qarshi qalqon bo‘la olishi kerak. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali korxonaning atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirishi, jumladan, ekologik huquqbuzarlik sodir etmasligi, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimidan foydalanishi va ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni



joriy qilish (“7R”) tamoyilini tatbiq etishi lozim. Chunki bugun yurtimizda havoning ifloslanishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan asosiy omillardan biri sanoat chiqindilaridir. Ularni keskin kamaytirmay turib, toza havo haqida gapirish qiyin masala.

Tadbirkorlik subyekti faoliyatida energiya tejovchi uskunalar, tomchilatish, yomg‘irlatish va konteynerli (qopli) sug‘orish tizimlarini o‘rnatishi ham talab etiladi. Atrofni ko‘kalamzorlashtirishga hissa qo‘shishi, korxonani “yashil belbog‘” bilan o‘rashi kerak. Buning ortidan u “yashil” tadbirkor maqomiga erishadi va qo‘shimcha imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Bu maqom biznes egalarga shunchaki ko‘z-ko‘z qilish uchun berilmaydi. Uning o‘ziga yarasha qulayliklari, imtiyoz va rag‘batlari bor. Avvalo, “yashil” tadbirkor maqomini olgan tadbirkorlik subyektlari “shaffof qurilish” platformasida ustuvorlikka ega bo‘ladi. Mazkur platforma qurilish loyihalarini tender asosida yutib olish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda tadbirkorlarning reytingi ham baholab boriladi va loyihalarni ajratishda ana shu ko‘rsatkich “tavsiynoma” bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “yashil” tadbirkor maqomi egasi va unga tegishli korxona muayyan muddat ekologik tekshiruvlardan ozod etiladi. Mahsulotlarini eksport qilish va xalqaro bozorlarga olib chiqishda qo‘llab-quvvatlanadi. Atrof-muhitni asrashga bevosita hissa qo‘shgan bunday tadbirkorlar “Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishoniga ham tavsiya etiladi. Asosiysi, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash orqali Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingida qo‘shimcha ballga ega bo‘ladi.

O‘tgan yil fevralidan joriy etilgan Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik

reytingi yurtimiz amaliyotida yangilik bo‘lib, qisqa vaqtda ishbilarmonlar faoliyatini baholovchi asosiy mezonaga aylandi, — deydi Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig‘i Sarvarbek Niyozov. — Bu ball korxonalarni yuqori, o‘rta, qoniqli va quyi toifalarga ajratishda hisobga olinadi va shu orqali tadbirkorlik subyektiga qo‘shimcha rag‘bat beriladi. Ya‘ni baholash asosida rag‘bat va imtiyozlar taqdim etib boriladi. Masalan, tadbirkor “AAA” toifadagi reytingga ega bo‘lsa, soliq tekshiruvdan to‘liq ozod etiladi, QQSdan hosil bo‘lgan soliq summasi amaldagi 7 kundan 30 kungacha bo‘lgan muddatda emas, balki bir kunda qaytariladi va hokazo.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ball asosida baholash onlayn tizim orqali avtomatik shakllantiriladi. Umumiy baho to‘plab boriladigan ball orqali kiritiladi va har bir qo‘lga kiritilgan ball yuqori toifa tomon tashlangan qadamd. Hozir ushbu reyting bo‘yicha mamlakatimizda 567 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti baholanyapti. Baholashda nafaqat soliq tizimi, balki boshqa ko‘plab mezonlar nazarda tutilgan. Endi ular qatoridan tadbirkorlik subyektlarining o‘z faoliyatida “yashil” taraqqiyot mezonlarini qo‘llashi ham joy oladi.

### Qanday afzalliklarga ega?

Eslassam, bir necha yil oldin ekologik muammolar haqida gap ketsa, mayda masalalarni tilga olib, norozi bo‘lardik. Yurtimizda atrof-muhit tobora ifloslanib borayotganiga chora sifatida daraxtlar ekish, tabiatni asrash, ko‘krak nishoniga ham tavsiya etiladi. Asosiysi, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash orqali Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik

yetdik. Aniqrog‘i, mamlakatimiz 2019-yildan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tomon yuz burib, global muammoga qarshi dadil qadam tashlay boshlagach, biz o‘ylagan masalalar katta-katta loyihalarning bir qismi ekani oydinlashdi. Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida bu loyihalarni yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingani yil boshidanoq ko‘zga tashlandi. Davlat dasturi loyihasiga nazar tashlansa, asosan, “yashil” so‘zi bilan boshlanadigan jumalarga ko‘zimiz tushayotgani boisi shunda. Biz chindan ham atrof-muhitni asrash va “yashil” taraqqiyotga erishishga qat‘iy va yangicha yondashuvlar bilan kirishdik.

“Yashil” tadbirkorlik jahon amaliyotida ham qo‘llanayotgan usullardan. Masalan, Fransiyada “yashil” tadbirkorlikni rivojlantirishda “Yashil o‘shiga” o‘tish to‘g‘risida”gi qonun asos qilib olingan. Mazkur qonun doirasida qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash va energiyani tejash sohalarida faoliyat yurituvchi startaplar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar mavjud. Maxsus platforma orqali kompaniyalarga “yashil” texnologiyalarni rivojlantirish uchun kredit va grantlar taqdim etiladi. Mintaqaviy tashabbuslar esa qayta tiklanadigan energiya uchun infratuzilma yaratish va mahalliy ekologik loyihalarni ishga tushirishga yordam beradi.

Endi bunday tajribalar O‘zbekiston amaliyotida ham qo‘llanildi. Ayni vaqtda ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan harakatlarni faollashtirayotgan tadbirkorlar uchun bu, ayniqsa, manfaatli. Har bir harakat ularni “yashil” tadbirkor maqomi va qo‘shimcha imtiyozlar tomon boshlaydi. Samarqand viloyatidagi “Tango plast” oiliyviy korxonasi yuqoridagi talablarning bir nechtasini allaqachon faoliyatida qo‘llamoqda. Bu yerda quram mevalar “ekologik toza” talablar asosida qayta ishlanib, chet elga eksport qilinaypti.

Boshqa ishlash chiqaruvchilardan farqli jihatlarimiz ham shunda, — deydi korxona direktori, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni sohibi Akobir Hamroyev. — Asosiy e‘tibor yuqori sifati va “ekologik toza” mahsulot tayyorlashga qaratilgan. Bu korxonamizdagi zamonaviy texnologiyalar ham atrof-muhitni zararlantirimaslikka asoslangan, degani. Hatto mahsulotlarni qadoqlash jarayoni shu jihat bilan xalqaro talablarga javob beradi. Bu mahsulotlarimizga jahon bozorida raqobatda ustunlik berib kelmoqda. Shuning ortidan xaridorimiz ko‘p. Korxonaning yillik aylanmasi 8 million dollarga yetdi. Energiyatejamlor uskunalaridan foydalanish esa xarajatimizni yanada qisqartiryapti.

“Yashil tadbirkor” platformasi ishga tushirilishi ana shunday tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Qolaversa, yangi tizim yurtimizdagi “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdagi chora-tadbirlar samaradorligi, energiya resurslari tejamlorligini oshiradi.



Iroda TOSHMATOVA,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

#### Boshlanishi 1-betda

Bu taklif “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon loyihasida keltirilgan. Unga ko‘ra, 2025-yilning 1-sentabridan boshlab “yashil tadbirkor” platformasi ishga tushiriladi va belgilangan talab asosida ishbilarmonlarga “yashil” tadbirkor maqomi beriladi.

Buning uchun tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatida “yashil” mezonlarni qo‘llashi kerak. Bu, avvalo, energiya tejovchi uskuna va texnologiyalardan kengroq foydalanish talabidir. Mazkur talab tadbirkorlar oldiga asosiy vazifalardan biri sifatida qo‘yilmoqda. Foydalanayotgan elektr energiyasi iste‘molining ko‘proq qismini “yashil” energetika hisobidan qoplashi muhimligi ko‘rsatilyapti. Bu biznes egalari uchun ham tejamlorligini oshiradi, ham atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar omillarini kamaytiradi.

Asosiy maqsad shu — tabiatni va ekologiyani asrash, global iqlim muammolarining oldini olish. Dunyo mamlakatlari “yashil” taraqqiyot tamoyillarini joriy etishga intilayotgani boisi shunda. O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib mazkur harakatga qo‘shilgan va qisqa muddatda “yashil” taraqqiyot tomon yuz burib, megaloyihalarni amalga oshirayotgan davlat sifatida tilga olinmoqda. Jahon hamjamiyati yurtimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish imkoniyatlari va harakatlari haqida gapiryapti, amalga oshirilayotgan yirik loyihalarni katta qiziqish bilan kuzataypti. Birgina “yashil” energetika yo‘nalishidagi megaloyihalar hisobidan 2024-yilda muqobil energiya ulushini 16 foizdan oshirishga erishildi. Ekologik toza energiya quvvati yiliga 2-3 karra ko‘paytirilyapti.



## Islahotlar samarasi

# IJTIMOY KARTA

## YURTDOSHLARIMIZGA IMKONIYAT VA QULAYLIKLAR YARATADI

**Toshkent shahri va Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida ijtimoiy karta tizimi tajriba-sinov tariqasida joriy etila boshladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma‘lumotiga ko‘ra, ijtimoiy karta 2024-yilning dekabridan boshlab yangi tayinlangan 9 turdagi ijtimoiy to‘lov oluvchi shaxslarga taqdim etilmoqda. Ushbu shaxslarga ijtimoiy kartalar bepul beriladi va dastlab to‘lov vositasi (bank kartasi) funksiyasini bajaradi.**

kompensatsiya olish imkonini beradi. Nafaqa va yordam puli ham shu kartaga tushadi. Bu boradagi ishlarni tashkil etish Prezidentimizning 2024-yil 18-iyulidagi “Aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan.

“Ijtimoiy karta” axborot tizimini joriy etish orqali ijtimoiy to‘lov va subsidiyalar, ijtimoiy xizmat va yordamlar tayinlash, taqdim etish, monitoring qilish va baholash jarayonlari, shuningdek, aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy xususiyatiga ega boshqa barcha choralarini bosqichma-bosqich to‘liq avtomatlashtirish ko‘zda tutilgan.

Bu imkoniyat ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolarning ehtiyojini hisobga olgan holda ularni ijtimoiy xizmatlar, yordam va to‘lovlardan hamda davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning boshqa choralaridan foydalanish uchun hujjat yig‘ishdan xalos etadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini manzilli, qisqa muddatda, masofadan turib hamda proaktiv tarzda olish imkonini beradi.

Ushbu yo‘nalishda joylardagi ishlar bilan tanishish maqsadida poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazida bo‘ldik. Yaqinda ta‘mirlangan va zamonaviy jihozlangan binoda faoliyat yuritayotgan markazga keluvchilarning qadami uzilmaydi.



Ular orasida ijtimoiy karta rasmiylashtirish uchun kelayotganlar ham talaygina.

Markaz bosh mutaxassisi Javohir Tohirovning aytishicha, bugunga qadar ijtimoiy karta rasmiylashtirish uchun 100 dan ziyod kishidan ariza qabul qilingan. Tegishli bankning tuman bo‘limi bilan hamkorlikda rasmiylashtirish va ijtimoiy karta taqdim etish ishlari davom etyapti.

Bu yo‘nalishda murojaatlar bilan ishlash barobarida ijtimoiy himoya tizimidagi yangiliklardan aholini xabardor etish, yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarni keng targ‘ib qilishga ham alohida e‘tibor qaratilyapti.

Soha mutaxassislari, jumladan, mahallalardagi ijtimoiy xodimlar uchun bu yo‘nalishda turli seminar-trening va mashg‘ulotlar o‘tkazilyapti.

Asli mutaxassislimg pedagog, bir yildan buyon shu tizimda ishlamayman, — deydi Yunusobod tumani “Ahmad Donish” mahalla fuqarolar yig‘inidagi ijtimoiy xodim Feruza Eshbekova. — Faoliyatimning ilk pallasidayoq “mahalla yetiligi” bilan hamkorlikda uymay yurib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini aniqladik. Hozir shu asosda aholiga davlatimiz tomonidan ajratilgan ko‘mak va yordamni yetkazib beryapmiz. Jumladan, o‘tgan yili qariyb 40 kishiga aravacha, qo‘ltiqtoyloq, eshitish moslamasi va boshqa zarur vositalarni berdik. E‘tiborli jihati, endi bunday buyumlarga muhtoj har bir inson uni o‘zi tanlash imkoniga ega. Ayni paytda bu imkoniyatni yanada kengaytirish va imtiyozlarni ko‘paytirish maqsadida “Ijtimoiy karta” tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. Aholi orasida bu yangilik mohiyatini keng targ‘ib etyapmiz.

Tumanning Astrobod mahallasida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodim Shamsiddin Doniyorov ham aholining tegishli qatlamiga davlatimiz tomonidan ajratilayotgan ko‘makni yetkazish borasida tizimli ishlamoqda. 11 mingdan ko‘proq odam yashayotgan mahallada bu ishlarni uddalashda mahalla faollari bilan birga tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar, homiylar bilan yaqindan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Uyma-uy yurish orqali oilalardagi vaziyat o‘rganilib, 63 xonadon kam ta‘minlangan deb topildi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida ushbu oilalarning turmush sharoitini yaxshilash bo‘yicha ishlanyapti. Mazkur oilalar farzandlaridan 7 nafarining to‘lov-kontrakt summasi tegishli tartibda to‘lab berildi. Ishsizlarni mehnat bozorida talab yuqori kasblarga o‘qitish va ishga joylashtirish chorasi ko‘riyapti. Tibbiy-ijtimoiy ko‘makka muhtojlarni sog‘lomlashtirish va

tibbiy reabilitatsiya qilish ko‘zda tutilgan. Ijtimoiy karta olish maqsadida murojaat qilgan 3 kishining arizasi qabul qilinib, muayyati qanoatlantirish bo‘yicha ishlar davom etyapti.

Ayni paytda hududlarda bu yo‘nalishdagi tajriba-sinov ishlari shu tarzda davom etyapti. 2025-yil 1-apreldan boshlab ushbu hududlar, ya‘ni Toshkent shahri va Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumani bo‘yicha yana qo‘shimcha 2 turdagi — homiladorlik va tug‘ish nafaqasi hamda “Saxovat va ko‘mak”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari hisobidan to‘lanadigan bir martalik moddiy yordam ham ijtimoiy karta orqali to‘lab beriladi.

Ijtimoiy karta funksiyalari bosqichma-bosqich kengaytirib boriladi. Jumladan, ushbu karta 2025-yil 1-apreldan boshlab transport kartasi va imtiyozli transport kartasi vazifasini ham bajaradi. Jamoat transportida imtiyozli yoki bepul foydalanish huquqiga ega shaxslar, belgilangan imtiyozli yoki bepul tarifdan foydalangan holda imtiyozga ega bo‘lmagan shaxslar belgilangan transport tariflarida transportdan foydalanishi mumkin. Ushbu funksiyani joriy etish maqsadida tegishli axborot tizimlarini integratsiya qilish chorasi ko‘rilmoqda.

Tajriba-sinov bosqichida ijtimoiy karta ochish uchun elektron arizalar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali qabul qilinmoqda. Keyinchalik fuqarolar Yagona davlat interaktiv xizmatlari portali, “Ijtimoiy karta” mobil ilovasi hamda ijtimoiy karta bo‘yicha belgilangan moliyaviy agentlarning bo‘linmalari (banklar) orqali murojaat qilishi mumkin.

Ijtimoiy karta ariza berilgan kundan boshlab 3 ish kunida taqdim etiladi. O‘zgalar parvarishiga muhtoj ayrim shaxslarga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan 15 kunda ijtimoiy kartalar ularning yashash joyiga yetkazib beriladi.

Ijtimoiy karta 2025-yil 1-iyuldan boshlab bosqichma-bosqich mamlakatimizning barcha hududlarida joriy etiladi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!







www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## Prezident tashabbusi amalda

## UYCHI TAJRIBASI:



## HAMKORLIKDA HIKMAT KO'P

Uychi tajribasi o'zgacha shaklda amaliyotga joriy qilingani bilan ajralib turadi. Uning farqli va o'ziga xos jihati, tadbirkorlar va biznes bilan shug'ullanish istagidagi aholi vakillari bilan manzilli ishlashda. Ya'ni hokimlik yer, elektr, suv, yo'l va boshqa infratuzilma masalasini, bank esa mablag'ni hal qiladi. Mutasaddilar tadbirkorlar bilan, bank rahbarlari esa mijozlari bilan muntazam uchrashib, biznesni kengaytirish uchun zarur choralar ishlab chiqishda amaliy yordam berib, qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Mahallalarda "xonadonbay" va "mijozbay" ish tashkil etildi. Buning hisobiga 36,1 ming aholi bandligi ta'minlandi hamda norasmiy ish o'rinlari qonuniylashtirildi.



**Shuhrat MUSAYEV,**  
Uychi tumani hokimi

Xususan, bank va tadbirkorlik subyektlari ishtirokidagi uchrashuvlarda yuzlab muammolarning hal etilishi orqali 878 nafar ishsiz doimiy ishga joylashdi. Tijorat banklari va hokim yordamchilari ko'magida 1404 ta mikroloyiha ishga tushirildi. Mavjud bo'sh ish o'rinlarida aholi bandligini ta'minlash maqsadida 17 marotaba mehnat yarmakasi o'tkazildi. Unda 273 nafar ishsiz bilan mehnat shartnomalari tuzilib, 473 nafari kasb-hunarga o'qitildi, 355 nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi. Subsidiya mablag'lari hisobidan ishsizlarga mehnat qurollari, jumladan, tikuv mashinasi, xomashyo, motokultivatorlar berilib, muqim daromad manbalariga ega bo'ldi.



Tumanimizda 40 gektar maydonda tashkil etilgan 5 ta kichik sanoat zonalarida shu kunga qadar umumiy qiymati 502 milliard so'm bo'lgan 110 ta loyiha ishga tushirilishi hisobiga 3 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. "Inexo Plast" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan qiymati 8,2 milliard so'mga teng plastik profil ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi ro'yogha chiqarildi. "Mega tekstil" qo'shma korxonasida yiliga 152 milliard so'm qiymatidagi yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va 10 million dollarga teng eksport quvvatlari yaratildi. Bugungi kunda korxona tomonidan qiymati 7 million dollar bo'lgan investitsion loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Unda mahalliy xomashyolardan yotoqxona choysablari tayyorlash, klaster usulida paxta yetishtirish, paxta, chigit, sutni qayta ishlash kabi yangi loyihalar o'rin olgan. Buning hisobiga mavjud ish o'rinlari soni 900 taga yetkazildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 2845 nafar aholi kambag'allikdan chiqarildi. "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha aniq mas'ullar va oyma-oy chora-tadbirlar belgilab olindi. Dastlabki bosqichda viloyat va tuman darajasidagi 92 nafar rahbar o'rinbosarga birlashtirilgan jami 445 kambag'al oila ahvoli to'liq o'rganildi.

2025-yilda ishsizlik darajasini 1,3 foizga, kambag'allik darajasini 3,4 foizgacha tushirish, migrantlar sonini oshirmagan holda, 1012 nafar fuqaroni rivojlangan davlatlardagi yuqori maosh beruvchi kompaniyalarga tashkillashtirilgan tartibda ishga yuborish rejalashtirilgan. Shu maqsadda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mahalliy hokimliklar, tijorat banklari hamda tegishli iqtisodiy idoralar bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi.

## Boshlanishi 1-betda

O'tgan qisqa vaqt davomida bu yerda 17 ming 131 nafar aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish, ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, kambag'allik va migratsiyani keskin kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O'tgan yil dekabr holatiga ko'ra 24 mingdan ortiq aholi bandligi ta'minlandi. Imtiyozli dasturlar doirasida 2803 nafar aholi va tadbirkorlik

subyektlariga 55,3 milliard so'm, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga 30,1 milliard so'm, "Biznesga birinchi qadam" va "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturlari doirasida 25 milliard so'mdan ortiq kredit mablag'lari o'zlashtirildi.

Prezidentimiz raisligida 2024-yil 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor

yig'ilishda Uychi tajribasi o'zini oqlagani e'tirof etilib, yangi sur'at bag'ishlash zarurligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida mahallalarda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha shtab tashkil etilib, har bir mahallaga bank va tashkilotlar birlashtirildi. Bunda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining muammo va takliflarini o'rganish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tomorqa ekin maydonlaridan unumli foydalanish borasida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda.

## QIRCHILLAMA YIGIT BO'LIB ISHLAGIM KELADI

Mahallamiz tumaning eng katta va aholi zich massivlaridan biri — Jiydakapa qishlog'ida joylashgan. Yaqinda sakson ikki yoshni qarshi oldim. Qirq yil tumandagi 18-maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib, yoshlarga ta'lim-tarbiya berganman. Umr yo'ldoshim bilan ikki o'g'il, uch qizni kamolga yetkazdik, yigirmaga yaqin nabira-yu chevaramiz bor.

Namangan — Andijon avtomagistral yo'li mahallamizdan o'tgan. Keyingi yillarda temirchilik, xususan, hovli va xonadonlar uchun temir darvozalar tayyorlash ko'paydi. Ish tajribalarini ommalashtirish, hunarmandlar uchun munosib ish sharoiti yaratish maqsadida temirchilikka ixtisoslashgan yoshlar kichik sanoat zonasini tashkil etildi. Bu yerda temir darvoza, eshik, so'ri, panjara va boshqa metall buyumlar tayyorlanayotgan. Mahsulotga bo'lgan talabning ortib borishi ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishni talab qildi, ammo joy tor, imkoniyatlar yo'q edi. Chunki oxirgi yillarda deyarli har bir xonadonda shunday ustaxonalar tashkil etildi-da.

Mazkur ishga nabiralarim ham hissa qo'shdi. Avvaliga uy sharoitida mahsulot tayyorlashni yo'lga qo'yishdi. Prezidentimizning maxsus sanoat zonasini qurish, ishlab chiqarish uchun kerakli yo'l, suv, elektr energiyasi singari zaruriy infratuzilma tarmoqlari olib kelish, faoliyat turlarini kengaytirish bilan bog'liq sharoitlar yaratish

yuzasidan bergan taklif va ko'rsatmalari soha rivojida har jihatdan qo'l keldi. Temirchilik yanada ommalashdi, temir darvozalar tayyorlash jarayoni sanoatlashdi.

Avvallari mahallamiz yoshlari, ayniqsa, erkaklar xorijga ish izlab borishga majbur bo'lgan. Bugun bu jarayon butkul barham topdi. Hamma o'z oilasi bag'rida amin-erkin, farovon yashab, mehnat qilmoqda.

Bularni ko'rib, yetkazgani, ko'rsatganiga shukronalar aytaman. Ustalar tayyorlayotgan temir darvozalardan hayratlanaman, chiroyli, bejirim, betakror, bir-biriga kamarbasta bo'lib mehnat qilayotgan yoshlar sa'y-harakati, izlanishlarga havas qilib, qirchillama yigit bo'lib ishlagim keladi.

**Abbosali ota AKBAROV,**  
"Qumtepa" mahalla fuqarolar yig'ini mehnat faxriysi



## NAZARIY BILIM AMALIYOT BILAN UYG'UN BO'LDI

Kasb-hunar kollejida texnologiya yo'nalishi bo'yicha malaka olganman. Qishlog'imizda yangi korxona tashkil etilganidan xabar topib, ishlab chiqarish amaliyotini shu yerda o'tkazib, nazariy bilimlarimni amaliyot bilan uyg'unlashtirib bordim, ustozlar ko'magida ish o'rgandim, tajriba ortirdim.

Dastlab oddiy ishchi, bugunga kelib, bosh texnolog vazifasida ishlash, 5 million so'mdan ortiq maosh o'layman. Xorijda ishlash ham buncha daromad topish qiyin. Shu bois, tengqur do'stlarimni uyga qaytib, mahallamizdagi korxonada ishlashga taklif qilyapman.

**Muhammadamin SHAMSIDDINOV,**  
bosh texnolog



## UZOQNING BUG'DOYIDAN, YAQINNING SOMONI YAXSHI

Yoshlar yetakchisi tavsiyasi bilan menga motokultivator berishdi. Mahallamizning o'sish nuqtasi dehqonchilikka ixtisoslashgan. Shu bois, motokultivator xizmatiga bo'lgan talab yuqori.

Joriy mavsumda ishlash topgan daromadim hisobiga o'z tomorqamda issiqxona qurib, sabzavot ekinlari yetishtirishni yo'lga qo'ydim, qo'shimcha daromad oldim. Ayni kunda ish faoliyatimni kengaytirish, traktor, xarid qilish, kichik qayta ishlash tarmoqlarini qurishni ko'zlab turibman. Bu juda katta imkoniyat. Endi xorijga ish izlab borishga hojat qolmadi. "Uzoqning bug'doyidan, yaqinning somoni yaxshi", deb shuni aytalar kerak-da.

**Hasanboy XALILOV,**  
mehnat migranti



## QO'SHIMCHA QIYMAT YARATILYAPTI

Korxonamizda meva danaklarini qayta ishlash loyihasi ishga tushirilishi hisobiga qo'shimcha qiymat yaratildi. Bu yerda 15 ta doimiy va 100 ta xonadonda kooperatsiya asosida ish o'rinlari tashkil qilindi. Danak yig'im-terim mavsumida ishchi-xizmatchilar safi ikki hissaga ortadi.

Mahsulotlarimizga ichki va tashqi bozorda talab yuqori. Bu yerda meva danaklari qayta ishlanib, 1000 tonnadan ortiq mag'iz saralab olinadi. Ularni Turkiya, Xitoy kabi davlatlarga eksport qilyapmiz. Shu kunga qadar bu boradagi ish hajmi 500 ming dollardan oshdi.

Faoliyatimiz shu bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Hozirda yangi qadoqlash tarmoqlari faoliyatini yo'lga qo'yish orqali eksport geografiasini kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish borasida ish olib boryapmiz. Bu qo'shimcha ish o'rinlari

**Bilol SHAROFIDDINOV,**  
"Islomobod" mahalla fuqarolar yig'indagi  
"Abdulvohid Bilol Shamshiddin mehnat"  
MCHJ ish boshqaruvchisi

## MIGRATSIYA ASOSIY MASALA

Mehnat migratsiyasidagi fuqarolarni qaytarish va ularni daromadli ish joylarida bandligini ta'minlash maqsadida mas'ullar tomonidan, har bir migrant bilan o'nlang muloqot qilib, xorijdagi ish sharoiti, topayotgan daromadi va muammolari o'rganildi. Yetarli daromadga ega bo'lmagan fuqarolarni uyylariga qaytarish va daromadli ish o'rinlari bilan ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Amaliy chora-tadbirlar natijasida shu kunga qadar 5794 nafar fuqaro mehnat migratsiyasidan qaytarildi. Shu o'rinda e'tiborli bir jihatti aytib o'taman. 2017-yilda tumanimizda faqat yog' zavodi va "Kapteks" xususiy korxonasi faoliyat yuritgan, xolos. Bugunga kelib, "Yorkatay", "Ovchibuloq", "Qumtepa" singari kichik va yoshlar sanoat zonalarini tashkil qilib, yuzlab zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Har bir sektor kesimida tadbirkorlar faoliyati kengaytirilib, "Libos Gulshani", "Megatekstil", "Barkas tekst", "Vodiy ipak gilami" kabi yangi sanoat korxonalari hisobiga yuzlab ish o'rni yaratildi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda nodavlat ta'lim faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan "Ra'noxon Textil Servis", "Solexa Samo" hamda "Academy Senior IT" o'quv markazlarida 400 nafarga

**Dolimjon MAVLONOV,**  
Uychi tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i

## CHEKKA QISHLOQ SANOATLASHYAPTI

Mahallamiz tuman markazidan 15 chaqirim olisda joylashgan. Asosan, dehqonchilik, chorvachilik yo'nalishiga ixtisoslashgan qishloqqa kichik sanoat tarmoqlari kirib borishi hisobiga ishsizlik, kambag'allikdan xoli hududga aylandi.

Mahalla hududida yillar davomida qarovsiz qolgan bo'sh bino tadbirkor Botir Muhammadaliyev tashabbusi bilan ta'mirlanib, jihozlangach, mavsumiy oyoq

kiyimlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Buning uchun "Biznesga birinchi qadam" mikroloyihasi asosida "Xalq banki" tomonidan imtiyozli kredit mablag'lari berildi. Ayni

kunda 30 dan ortiq doimiy ish o'rni yaratildi. Bundan tashqari, 50 dan ziyod kasanachilar bilan shartnoma asosida ish olib borilmoqda.


Chekka qishloqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xorijga eksport qilyapmi desam, kimdir ishonmasligi mumkin, ammo bu ayni haqiqat. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bir qismi Tojikiston va Qirg'izistonga eksport qilyapmi. Bu odamlarning ruhiyatini ko'tardi, o'zlariga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamladi.

2024-yil avvalida o'tkazilgan "xonadonbay" o'rganishlarimiz natijasida ishlash istagida bo'lgan 86 nafar ishsiz fuqaro borligi aniqlangandi. Shu kunga qadar ularning barchasi doimiy daromadga ega bo'lgan ish o'rinlari bilan ta'minlandi. Aksariyat yoshlar yangi tashkil etilgan korxonaga ishga kirgan bo'lsa, 19 nafar xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinalari berilib, o'zini o'zi band qildi, 6 nafar yoshlar motokultivatorlar bilan

ta'minlandi. 23 nafar xotin-qiz tikuvchilikka o'tqilib, poyabzal korxonasiga ishga joylashdi.

Bundan tashqari, issiqxona, chorvachilik, asalarichilik yo'nalishlarini qamrab olgan qator loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 394 million so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish borasida olib borayotgan ishlarimiz bu bilan poyoniga yetgani yo'q, albatta. Hayot davom etar ekan, uning o'ziga yarasha muammolari uchrab turadi. Bugungi kunda asosiy e'tibor mehnat migratsiyasidagi yoshlar bilan ishlashga qaratilgan. Bu yo'nalishda hokimlik, mahalla yetiligi, bank vakillari bilan tez-tez muloqot o'tkazish an'angaya aylangan. Muloqot jarayonida yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar, mavjud muammo va ularning yechimi, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash borasida takliflar berib borilyapmi, yoshlar fikrlari bilan o'rtoqlashilmoqda.

**Akmaljon UBAYDULLAYEV,**  
"Xo'jaobod" mahalla fuqarolar yig'indagi hokim yordamchisi





# EZGU AMALLAR, XAYRLI ISHLAR BILAN AJRALIB TURADI



## TASHABBUS QULOCH YOYMOQDA

### UMRIM BEHUDA O‘TGANIGA ACHINGANMAN

Temirchilik bobomeros kasb. Otam bu hunar ortidan elda hurmat-izzat topganlardan. Ammo ro‘zg‘ordan ortib, biron-bir ishga qo‘l ura olmagan. Hayotdek oilada bitta temir to‘qmoqqa qarab qolish bilan ish o‘nglanib qolmaydi. Shu bois, kunlar ilishi bilan Rossiyaga ish izlab borardim. Hayotimning yetti yilini ana shu tarzda o‘tkazdim.

Yaqlarim, mahalla faollari telefon orqali bog‘lanib, mahallamiz hududida temirchilik yo‘nalishiga ixtisoslashgan sanoat zonasi tashkil etilgani, bu yerdagi qulaylik, imtiyoz va imkoniyatlar xususida aytgan fikrlarini eshitib, ortimga qaytdim, adashmagan ekanman. Menga uch sotix yer maydoni va imtiyozli kredit mablag‘lari berishdi. O‘z tadbirkorlik faoliyatimni yo‘lga qo‘ydim.

Temirchilik, payvandlash oddiy jarayon emas. Bu ishda har bir narsa aniq hisob-kitob asosida, yetti o‘lchab bir marta kesishni talab qiladi. Shuning uchun ukam, ishsiz qo‘ni-qo‘shnilarni

yordamga chaqirdim. Bugungi kunda 4 nafar shogirdim bor. Ishimizda sifat ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mahsulotlarimizni sotish uchun yurtimizning barcha hududlari qamrab olingan. Markaziy Osiyo davlatlari ham katta qiziqish bildiriyapti. Ikki milliard so‘mdan ortiq tovar aylanmamiz bor, bu o‘rta hisobida 500 million so‘m daromad degan gap. Ishchilarimizning daromadi ham shunga yarasha, oylik maoshlari 7-8 million so‘mni tashkil qiladi.

Abrorjon ERGASHEV,  
hunarmand



Mamlakatimiz Prezidenti “Qumtepa” yoshlar kichik sanoat zonasidagi ishlab chiqarish jarayonini ko‘zdan kechirib, temirchi hunarmandlar bilan suhbatlashib, sanoat zonasini maydonidan samarali foydalanish, ishsiz fuqarolar, ayniqsa, yosh yigit-qizlarni hunarmandchilikka yo‘naltirishning aniq yechimlari xususida ko‘rsatmalar bergan.

Belgilangan vazifalar ijrosi doirasida 30 ta loyiha shakllantirilib ishga tushirildi, “Usta-shogird” an‘analari asosida 500 dan ortiq ish o‘rni yaratildi.

Hududda temirchilik sohasiga qiziqqan tadbirkor yoshlarning ko‘payib borayotgani bois, sanoat zonasi yonidagi ikki gektar yer maydonida ikkinchi bosqich qurilish ishlari boshlab yuborildi. Ayni kunda 33 nafar yosh hunarmandga uch sotixdan yer maydoni ajratib berilib, umumiy qiymati 16,5 milliard so‘mlik loyihalarda qurilish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda chetdan olib kelinayotgan xomashyoni mahalliyashtirishga e‘tibor qaratilyapti. Bu har bir ishlab chiqaruvchiga 100 million so‘mgacha mablag‘ni tejash imkonini beradi. Qumtepa mahallasi va kichik sanoat zonasida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy temir eshik va darvozalarni mamlakatimizning

barcha hududlari, hatto qo‘shni Qirg‘izistondan kelib, xarid qilib ketishmoqda.

Umumiy hisobda 5,1 gektar maydonni egallagan majmuada Qumtepa, Dehqon, Balandariq va Jiydakapa mahallalarida istiqomat qilayotgan usta-hunarmandlar uchun zarur sharoitlar hozirlandi. Quyosh panellaridan samarali foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi, yo‘l, elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv kabi kerakli infratuzilma tarmoqlari olib kelindi.

Yana bir jihati, Namangan viloyati hokimligi tashabbusi bilan shu kunlarda Qorqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahrida Uychi tajribasi asosida temirchilikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonasi qurilishiga poydevor qo‘yilmoqda.

Nuriddin DADABOYEV,  
“Qumtepa” mahalla fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchisi

### YERDAN XAZINA TOPAYOTGANLAR

Uychi tajribasini ommalashtirishda tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanish va “mijozbay” ishlash borasida sezilarli natijalar qo‘lga kiritilyapti. Aholi tomonidan auktsion savdolari orqali sotib olingan yerlarda “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirish ishlari ommalashdi. Shu kunga qadar hokimlik xazirasiga olingan 338 gektar yer maydonlari elektron onlayn auktsion savdolariga chiqarildi.

Bizning mahalla fuqarolar yig‘inida 15 gektar maydonda shirin makka ekish yo‘lga qo‘yilib, yetishtirilgan sarxil mahsulotlar yirik tadbirkorlar tomonidan sotib olinmoqda. Masalan, ishsiz xotin-qizlar toifasiga kirgan Xurshida Qo‘chqorovaga 20 sotix ekin maydoni imtiyozli auktsion savdolari orqali ajratib berilib, tadbirkorlar ko‘magida urug‘, mineral o‘g‘it, texnikalar yetkazib berish yo‘lga qo‘yilgani har jihatdan samara berdi. Bu yo‘nalishda “Benazir Iqbol Mirzo” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bilan uzviy hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi hisobiga bir mavsumning o‘zida 30 million so‘mdan ortiq daromad olindi, chorva uchun ozuqa jamg‘arildi. Ekandan bo‘shagan maydonlarga “to‘qsonbosti” usulida sabzavot ekinlari ekildi.

Bu usulda ish olib borish har jihatdan foydali bo‘lyapti. Avvallari yetishtirilgan mahsulotni sotishda turli qiyinchilik, ovoragarchiliklarga duch kelingan bo‘lsa, endilikda dalaning o‘zida xarid qilib olinyapti.

Aholimizning asosiy qismi issiqxona, chorvachilik, parrandachilik kabi yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadi. Tomorqada issiqxona xo‘jaligini yuritish mahallamizning drayver sohasiga aylanib bormoqda. Shu kunga qadar dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik tarmoqlarini rivojlantirish loyihalari uchun 700 million so‘mdan ortiq kredit ajratildi.

Mirishkor tomorqachilarimiz uch mavsumda pomidor, bodring, sarimsoq piyoz yetishtirib, daromad oladi. Mahsulotlarning katta qismi Rossiya va Qozog‘istonga eksport qilinsa, qolgan qismi ichki bozorga yetkazib berilyapti. Eng asosiy, aholimiz har bir mavsumda yaxshigina daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bilimli yoshlar, to‘kin dasturxon, shina uy-joylar ana shu mehnat va izlanishlar mahsuli.

Mahmudjon EGAMBERDIYEV,  
“Dehqon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

### “MAHALLA YETTILIGI” KO‘MAKKA TAYYOR

Mahallalar o‘shish nuqtalaridan kelib chiqib, tikuvchilik, asalarichilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, qandolatchilik, issiqxona faoliyatini yo‘lga qo‘yish sohalarida xotin-qizlar bandligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘tgan yilning o‘zida 1532 nafar xotin-qiz bu yo‘nalishlarda kasb-hunarga o‘qitildi. Bundan tashqari, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan 6348 nafar ehtiyojmand xotin-qizga 6 toifaga bo‘lingan holda ijtimoiy yordam ko‘rsatildi. Ijtimoiy yordamni aniq ehtiyojmand oilalarga yo‘naltirish uchun raqamli platformalardan foydalanilyapti. Mehnat muhojirlarini qo‘llab-quvvatlash, huquqiy himoya qilish va moliyaviy savodxonliklarini oshirish borasida tizimli ishlar olib borilyapti.

Yosh tadbirkor Sevara Olimova tashabbusi bilan kasanachilik markazi tashkil etildi. Bu yerda 30 nafar doimiy va uy-ma-uy mahsulot tarqatish orqali 80 dan ortiq xotin-qiz kasanachilik asosida ish bilan band qilindi. “Jiydakapa” mahalla fuqarolar yig‘inida Odina Abdullayeva sa‘y-harakati bilan tikuvchilik korxonasi ishga tushirilishi hisobiga 20 nafar xotin-qiz doimiy ishga jalb etildi. Korxonada qo‘shimcha quvvatlar hisobiga yana 40 ta ish o‘rni yaratiladi. Tadbirkor Ulug‘bek Ibragimov Rossiya davlati bilan tuzilgan



shartnoma asosida kiyim-bosh, ko‘rpa va yostiqliklarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi, 70 ta ish o‘rni yaratdi.

“Bo‘yog‘on” mahalla fuqarolar yig‘inida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirdi. Bugungi kelib bu yerda 16 ta tikuvchilik, 2 ta mebel, 4 ta duradgorlik sexi, 2 ta parrandachilik, 6 ta

chorvachilik kompleksi, pazandachilik, gulchilik yo‘nalishida tadbirkorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Yakka tartibdagi tadbirkor Nozimjon Hotamovga qarashli “Bo‘yog‘on chevarlari” oilaviy tikuvchilik tarmog‘ida qirg‘a yaqin xotin-qiz mavsumiy trikotaj kiyimlar tikib sotuvga chiqarmoqda.

Ishsizligi bois, Sohobaxon Abdurahobova “Ayollar daftari”, qizi Umida “Yoshlar daftari”ga kiritilgandi. “Mahalla yettilligi” tashabbusi bilan ularga subsidiya asosida tikuv mashinasi, xomashyo xarid qilish uchun mablag‘ ajratildi. Bu oddiy oilaga xotirjamlik, farovonlik olib keldi. Masala bu bilan poyoniga yetgani yo‘q, albatta. O‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yg‘an oila, mahalladagi 20 nafar kasanachi bilan ko‘rpa va yostiqlar uchun g‘iloflar tikishni yo‘lga qo‘ydi.

Rossiyada ishlayotgan to‘ng‘ich qizini ham chaqirib oldi. Asosiy maqsad berilgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, oilaviy farovonlikka erishish. Ish faoliyatlarini, kelgusidagi reja va maqsadlari, mavjud muammolar xususida “mahalla yettilligi” tez-tez xabar olib turibdi. Ishlayman deganga barcha imkoniyatlar yaratib berilyapti.

Sayidaxon AHMADALIYeva,  
tuman hokimining o‘rinbosari,  
oil va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i

### BANK XIZMATLARI MAHALLA DARAJASIGA TUSHDI

sektori talablariga mos hunar, o‘quv-kurslarini tashkil qilish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish orqali zamonaviy texnologiyalar va biznes ko‘nikmalarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish yo‘nalishlariga sarmoyalar ajratish bo‘yicha takliflar beryapmiz. Shuningdek, yashil energiya ishlab chiqarish, quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish orqali ish o‘rinlarini yaratish, atrof-muhitni saqlash, qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish sohasida bandlikni ta‘minlash, ekologik turizmni rivojlantirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga asoslangan biznes loyihalarni joriy etish bo‘yicha takliflarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlayapmiz.

“Obod” mahalla fuqarolar yig‘inida “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida



mahallaning Amir Temur ko‘chasida xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor Abdulaziz Abdurahmonovga 50 million so‘m kredit ajratildi. Buning hisobiga yangi tikuvchilik korxonasiga tamol toshi qo‘yildi. Tikuvchi malakasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar bilan kasanachilik asosida mahsulot tayyorlash hisobiga 20 ta doimiy ish o‘rni yaratildi. Ishsiz hamda ijtimoiy daftarda turuvchi 10 nafar xotin-qiz va 4 nafar yosh bandligini ta‘minlash uchun subsidiya ajratildi. Mahalla infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 2,7 kilometr yo‘l “Tashabbusli budjet” loyihasida g‘olib bo‘lib, namunali mahallalar qatoridan joy oldi.

Jamolidin MAXATOV,  
“O‘zmilliybank” AJ Uychi tumani bank xizmatlari markazi rahbari

### BIZNESGA BIRINCHI QADAM

“Qahramon” mahalla fuqarolar yig‘inida hokim yordamchisi tavsiyasi bilan o‘tgan yilning may oyida “Biznesga birinchi qadam” dasturi doirasida 5 million so‘m kredit



ajratildi. Bu mablag‘ hisobidan 200 bosh bedana parvarishlashni yo‘lga qo‘ydim. Hozirga kelib, kuniga 170-180 ta tuxum sotib daromad topyapman.

Yangi loyiha tufayli oilamizga fayz-baraka kirdi. Shu kunga qadar kunlik topganimiz ro‘zg‘or kam-ko‘stidan ortmagan. Tadbirkorlik yo‘lida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar oilamiz to‘kinligini ta‘minlayapti. Ayni kunda bedana tuxumlarini sotish va jo‘ja yetkazib berish yo‘nalishida yangi loyihalarni ishga tushirish borasida o‘z takliflarimizni berdik. Bu nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, balki qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, daromad salmog‘ini karrasiga oshirish imkoniyatini beradi.

Nargiza ERGASHEVA,  
tadbirkor

\*\*\*

Bir so‘z bilan aytganda, aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikdan chiqarish borasida boshlangan Uychi tajribasi xayrli amallar, tashabbuslarga boyligi bilan ajralib turadi. Hayotbaxsh islohotlar aholi daromadini oshirish, qishloqqa sanoatni olib kirish, infratuzilma tarmoqlari faoliyatini kengaytirish imkoniyatini berayotgani bilan ahamiyatli.

Qo‘sh sahifani “Yangi O‘zbekiston”  
mxbiri Rasuljon KAMOLOV tayyorladi.



Davlatimiz rahbarining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hayoti, ijodi va ilmini xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy ravnaqiga baxsh etgan bu buyuk zot, uning jasur yelkadoshlari xotirasiga nisbatan beqiyos ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.

Jadidlar merosi – ma’naviy mulkimiz

IS’HOQXON IBRATNING yetti ibratlari

Bu metin karvonning faol sarbonlari qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Abdurauif Fitrat bilan birga atoqli shoir, tilshunos, tarixnavis, islomshunos, noshir, matbaachi, ma’rifatparvar Is’hoqxon To‘ra Junaydullaxo‘ja o‘g‘li Ibrat ham bor edi.

Biz dastlabki adabiy mashqlarimizni qoralagan kezarimizda Is’hoqxon Ibratni shaxsan ko‘rgan, yaxshi bilgan, subhatdosh bo‘lgan oqsoqol shoirlardan Mulla Hoshim Hayratiy, Muhammadxon Mahjuriy, Zokirjon Habibi, Abdulahad Anisiy, Imomiddin Ulfat hayot edi. Yana bir omadli jihati, bizga bevosita aruz saboqlarini bergan ustozimiz Omonullo Boqir hazratlari Muqimi, Furqat, Oraziy, Ibrat haqidagi taassurotlardan bir-ikki shingil aytib berib turardi. Boqir domla bir kuni biz, yosh ijodkorlar bilan subhatlashayotganida “Ibrat domla shaxsining ibratli qirralari nimalardan iborat?” degan savolni qog‘ozga yozib uzatdim. Ustoz qog‘ozning orqasiga “Bu haqda bog‘da alohida ikkimiz gaplashamiz”, deya javob qaytardi.

Shovqinlardan xoli bog‘da subhatlash-ganimizda, Omonulla aka “Mullo Fariddini! Bugungi subhatimizni yondafaringga yozib olma. Ibratning yostig‘ini quritgan NKVDning quloqlari bugun ham bor. Aytganlarimni dilingda saqla. Is’hoqxon Ibratning biz uchun namuna bo‘lg‘uvchi yetti ibratlari bor. Birinchisi, u chin ma’nodagi mo‘min musulim bo‘lib, muqaddas haj amalini bajarishdan tashqari Makkai mukarrama va Madinai munavvaraga onasini ham olib borgan. Ikkinchisi, u ashaddiy kitob shaydosi edi. Hamisha noyob kitoblarni yig‘ib yurardi. Uchinchisi, mag‘zi to‘liq badiiy va ilmiy asarlar, she‘rlar yozardi. To‘rtinchisi, u vodiya o‘z maktabini ochgan birinchi pedagoglardan edi. Beshinchisi, kitob bosmasi bilan ham shug‘ullandi. Oltinchisi, beqiyos tilshunos, olti til lug‘atini tuzgan benazir olim bo‘lib tanildi. Yettinchisi, u oromiyon bog‘lar bunyod etdi. Yaxshi odam, yaxshi ota, yaxshi muallim, yaxshi qozi, ya’ni hozirgi til bilan aytganda, yurist, eng muhimi, o‘z yurtini, o‘z tilini, o‘z adabiyotini sevgan shaxs bo‘lgan”, degan edi. Bu gaplar hozir ham quloqlarim ostida jaranglab turibdi.

Keling, Boqir domla ta’riflaridan kelib chiqib, ulug‘ jadid hayoti va ijodiga bir qur nazar solaylik. Birinchi xulosa: Is’hoqxonxo‘ja otasi Junaydullaxo‘ja, bobosi Sunnatullaxo‘ja orqali buyuk shoir Xo‘ja Ahmad Yassaviy shajarasidan butoq olgan. Onasi Huribibi iqtidorli otinoyi bo‘lib, o‘zi ochgan maktabda to‘rao‘rg‘onlik qizlarga, alohida tarzda o‘g‘li Is’hoqxonga xat-savod o‘rgatir edi. Qo‘qon madrasasidagi tahsil esa navqiron Is’hoqxon oldida ilgma, kitobga keng yo‘l ochib berdi. Madrasada “Farg‘ona tong otuncha” g‘azzalining muallifi Haziniy bilan tanishdi. G‘azzalnavis Is’hoqxondan bir necha yosh kichik bo‘lsa ham matnlari o‘ta mustahkam edi. Ayniqsa, uning “Kimki Haqqa bandardar farmonidin ayrilmasun, Jon berarda gavhari iymonidin ayrilmasun...” kabi satrlari namanganlik tolibni sehlrab qo‘ygani edi. Muqimiy va Haziniy ta’sirida Is’hoqxon ham qalbidan qaynab chiqqan satrlarni qog‘ozga tushiradi:

Gulday yuzingni, dilbarim,  
Ko‘rgoni keldim sog‘inib,  
San shohi olam, man gado,  
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Ishqingda dilbar zor-zor,  
Yig‘lab yuribman, ey nigor,  
Kel ey, bukun ko‘zi xumor,  
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Is’hoqxon jadid matbuotining eng taniqli vakillaridan biri edi. “Oyina” jurnalining 1914-yil 12-sonida uning “Millatni kim isloh etar?” nomli maqolasi bosiladi. Unda “xaloyiqqa bilmaganini bildirish”, “imomlarning o‘zlari o‘qimoqlari” lozimligi aytiladi. “Mezon uz-zamon” asari esa islom ta’limotiga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif risolaning “maqsadi xalqg‘a amri ma’rufdur”, deya ta’kidlaydi. “Biz qilib turgan xizmat keyingi asrlarga ham xizmat etar”, deb umid bildiradi. To‘g‘iz mezondan iborat bu asarning ahamiyati bugun ham o‘z qadrini yo‘qotgan emas. Ibratning she’r va maqolalarida yangi zamon atama-lari — “traktor”, “temir yo‘l”, “poyezd”, “vagon”,

“vokzal”, “pochta”, “bank”, “kredit”, “gazeta”, “jurnal” so‘zlari ko‘p uchraydiki, bular atoqli jadid o‘z zamonasining ilg‘or ziyolisi ekanini tasdiqlaydi.

Ibrat o‘smirlik chog‘idan nodir kitoblar yiqqan. Kutubxonasida sharq va g‘arb mumtoz adiblarining o‘nlab devonlari, romanlari, jumladan, Ismoil G‘aspiralining “Xo‘jai Sibyon”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat ul-atfol”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinci muallim”, Abdurauif Fitratning “Adabiyot qoidalari”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Elbekning “Go‘zal yozg‘ichlar”, Ziyi Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti” asarlari bor edi. U hibsga olinganda ko‘plab ko‘lyozmalari, hali tamomlab ulgurmagan asarlari, to‘plagan nodir ko‘lyozma va bosma kitoblarning barchasi Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) xodimlari tomonidan to‘rtta qanor qopga joylanib, o‘zi bilan Andijon qamoqxonasiga olib ketilgan. 1935-yildan e’tiboran hamma lavozimlardan ozod etilib, qarilik nafaqasidan ham mosuvo qilingan Ibratning ustida sho‘ro qatag‘onining qo‘rg‘in oshindek og‘ir bulutlari ko‘paygandi. Vodiy jadidlari yo‘lboshchisining eng sodiq shogirdlaridan biri Mulla Iskandar domla Abduvahob o‘g‘lining ma’lumot berishicha, Ibrat qamoqqa olinishidan bir oy avval uni huzuriga chaqirib, yuzga yaqin nodir kitoblarni o‘z uyi mehmonxonasining orqasiga — qo‘shinich orasiga avaylab terib, devorni qayta suvab qo‘yishni topshirgan. Darhaqiqat, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, qatag‘on tegirmoni Ibratni ham och ajdahday o‘z komiga tortdi. 75 yoshni qoralagan kessa shoir va bir “qora mashina” to‘la kitoblarni Andijon turmasiga olib ketdi. Faqat qo‘shinich orasiga yashirilgan kitoblarigina saqlab qolindi. Jasur jadid turmada bir necha oy yotib, ming bir armon girdobida bu hayot bilan vidolashdi. Eng so‘nggi soniyalarigacha kitobxonlik borasida o‘z millatiga ibrat ko‘rsatib yashadi.


Is’hoqxon Ibrat ko‘plab ajoyib badiiy va ilmiy kitoblarning muallifi edi. Xususan, 1916-yili yozgan “Farg‘ona tarixi” asarining “Ta’rix Namangon” bobida o‘zining kindik qoni torgan qishlog‘i haqida quyidagilarni yozadi: “To‘rao‘rg‘onda ikki xishtin madrasa, bir hammom, to‘rt paxta zovud, o‘n beshdan ziyoda paxta saroy bo‘lub, o‘rtasidan Koson soyi o‘tadur. Suvi toza va havosi pokiza bir qasabadurki, yigirma ming nufusi bordur”.

Asarning “Ho‘qand shahri binosi”, “Asri Norbo‘taxon”, “Asri Olimxon ibn Norbo‘taxon”, “Asri Umarxon jannatmakon ibn Norbo‘taxon”, “Asri Muhammad Alixon ibn Umarxon”, “Voqeai Sulton Sayyid ibn Mallaxon”, “Xudoyorxonning to‘rtinchi xonlig‘i”, “Tarixi Andijon” kabi boblarida oltin vodiy o‘tmishiga oid muhim ma’lumotlar bor.

“Farg‘ona tarixi” kitobida shunday satrlar bitilgan: “Bul tarafda Namangonda Botura degan kishi chiqib, eski sipohlardan yig‘ib, ulamolar

so‘zlariga quloq solmay, muhorraba qilmoq bo‘lib, uch-to‘rt ming odamni jamlab, To‘rao‘rg‘onni g‘arb tarafidagi Sarsonchap degan qirg‘a askar yig‘ub, harakatda edilar. Yakkora Rusiya saraskari Glovachub degan Iskobluf amri bilan To‘rao‘rg‘onda yov chiqibdur deb dasht ilan Rusiya askari Namangondan chiqib, Botura To‘raga yurib kelganda o‘shal kun panjshanba kuni To‘rao‘rg‘on bozori edi, qiblagohimga mehmon bo‘lib kelgan Sulton ponsod va Sarimsoq degan kishilar qipchoqiyan kattalaridan erdilar, alarni mehmon qilib, to‘ma mehmoni bo‘lib, noshtadan keyin edi, shavla qilgan ekanlar, olub chuqub yeb, yarmidan o‘tgach erdi, birdan shimol tarafdagi qirdan to‘p ovozi chiqib qoldi. Mehmonlar darhol asoblarini bellariga bog‘lab, qo‘shunlariga chopdilar. Muallifi kitob ul vaqtda o‘n besh yoshida xatu savodim chiqqan talaba edim, birdan qoch-qoch bo‘lib, har kim o‘z holiga ovora bo‘lib, qiblagohimiz o‘z hollariga bo‘lib, qayon ketdilar bilmaduk”.

To‘rao‘rg‘on va Namanganning ruslar tomonidan bosib olinishi Junaydullaxo‘ja oilasiga og‘ir tashvishlar keltirdi. Shu bois, oila Qo‘qonga ko‘chib o‘tdi. Yosh Is’hoqxon madrasa ta’limiga



sho‘ng‘ib ketdi. Otasi Junaydullaxo‘ja esa haj safariga otlandi.

Is’hoqxon to‘ra yigirma to‘rt yoshida madrasani tamomlab, To‘rao‘rg‘onga qaytdi. Savobli ishlarga bel bog‘lab, maktab ochdi. Uning ochgan maktabi yangi uslubdagi maktab bo‘lib, oldingilaridan tubdan farq qilardi. Maktab bolalari tezda yozish, o‘qishni o‘rganar, maktabda hisob va boshqa sohalarga oid fanlar ham o‘qitilardi. To‘rao‘rg‘on va unga yaqin hududlardagi boshqa maktablar ham Ibrat uslubida o‘qitish tarziga o‘tadi.



Maktab ishlarini yo‘lga qo‘ygan Is’hoqxon to‘ra 1887-yili hajga borish, qiblagohi haqidagi xabarlariga aniqlik kiritish maqsadida yo‘lga otlandi. Validai mehriboni unga shunday deydi:

— To‘ram, otangiz hajga ketgan edi. Xabarlariga qaraganda, o‘zingiz aytganingizdek, ul kishi o‘shal mo‘tabar dargohda bandalikni bajo etmishlar. Iloji bo‘lsa, otangiz qolgan zamanga meni ham olib borsangiz!

Ona va bola yo‘llar osha, cho‘llar osha, tog‘lar osha muqaddas diyorga yetib bordi. Validasi Makkaga yetib, tabarruk tuproqni peshonasiga surtgach, uch kundan keyin olmand o‘tdi va Rasuli Akram yurtiga dafn etildi. Dafn marosimida Is’hoqxon to‘ra ko‘zlaridan shashqator yosh to‘kkan holda bir siqim tuproqni validai muhtaramasi boshi ostiga qo‘ydi va “Qiyomatgacha, onajoni!” deb u bilan vidolashdi.

Onasining vafotidan so‘ng Ibrat otasi haqida surishtirishga kirishdi. Ma’lum bo‘lishicha, otasi Makkaga yaqin bo‘lgan qishloqda vafot etgan, o‘sha qishloq qabrstoniga dafn qilingan ekan. Otasining qabrinoti topgach, padari buzruvorining so‘nggi manzilida o‘tirib, avval ko‘z yoshi to‘kdi. Uzoq sukutdan so‘ng Qur‘on tilovat qilib, barcha aziz-avliyo, mo‘minu musulmonlar, xususan, otasi haqiga duolar qilib, “Otajon, diydor endi qiyomatga qoldi, xayr endi”, deya Jiddaga qaytdi.

Jadid bobomiz bizga ko‘rsatib ketgan beshinchi ibrat shundan iboratki, u Farg‘ona vodiysida birinchilardan bo‘lib, kitob bosmasi bilan shug‘ullandi. 1907-yili Ibrat Orenburgda boradi va Rizo Faxriddinning “Sho‘tro” jurnali faoliyati bilan tanishadi. U Orenburgda Gaufrman degan matbaachidan pulini o‘n yil mobaynida to‘lash sharti bilan 1901-yilda chiqqan litografik mashina sotib oladi. Is’hoqxon litografik mashina va harflarni katta mashagqatlar bilan Orenburgdan Qo‘qonga poyezdda, Qo‘qondan To‘rao‘rg‘onga tualarda olib keladi. 1905-yili o‘zi qurdirgan hammom o‘mida bosmaxona tashkil qiladi va “Matbaai Is’hoqiya” nomi bilan ishga tushiradi. Is’hoqxon Ibrat jahon ilmiy va madaniyatida yaratilgan har bir ilg‘or yamgiri bilan o‘z xalqini bahramand etishga harakat qiladi. U tomonidan 1908-yili tashkil etilgan “Fotografiya Is’hoqiya” bu ishning bir namunasi bo‘ldi.

Xalg o‘rtasida kitob va turli xil risolalarga talab ortishi natijasida “Matbaai Is’hoqiya” 1910-yilda Namangan shahriga ko‘chirildi va tipolitografiyaga aylantirildi. Qisqa vaqt ichida o‘zining “San’ati Ibrat”, “Ilmi Ibrat”, “Jome’ ul-xutut” asarlarini bosmadan chiqardi, o‘zga mualliflarning asarlarini nashrga tayyorladi. Afuski, Is’hoqxon Ibratning ulkan orzu-umidlari amalga oshmay, armon bo‘lib qoldi. Oktabr to‘ntarishining dastlabki yiliyog sho‘ro hukumati “Matbaai Is’hoqiya”ni zo‘rlilik bilan tortib oldi.

Millat ma’naviyati, maorifi, ilm-fan taraqqiyotida matbuotning ulkan ahamiyatini yaxshi tushungan jadid mutafakkirlari Behbudiy,

Munavvarqori, Avloniy, Obidjon Mahmudov tashkil etgan gazeta va jurnallarni qo‘llab-quvvatlagan, ularda o‘z maqola va she‘rlari bilan faol ishtirok etgan Is’hoqxon Ibrat o‘zi ham 1913-yilda “Matbaai Is’hoqiya” qoshida “Al-tijoral Namangon” nomida gazeta chiqarishga harakat qildi, hukumatdan ruxsat olish uchun ariza ham berdi. Bu haqda Orenburgda chiqadigan, Markaziy Osiyoda, umuman, turk dunyosida mashhur bo‘lgan “Vaqt” gazetasi katta mamnuuniyat bilan quyidagilarni yozadi: “Namangon mo‘tabarindin Is’hoq qozi hazratlari “Al-tijoral Namangon” isminda bir gazeta chiqararg‘a so‘rab ariza berdi. Bu zot 1908-yilda Namangonda bir matbaa ochgan edi. Bu yil “Kutubxonai Is’hoqiya” isminda kutubxona ochib, turk, tatar, o‘zbek, rus tillarinda bo‘lg‘on adabiyot kitoblari oldirdi. Hozir gazeta chiqarmoq haddindadur. Chin ko‘nguldan muvaffaqiyat tilaymiz”.

Har qancha harakat qilsa-da, Ibrat gazeta chiqarishga muvaffaq bo‘la olmadi. Uzlusiz mustamlakachilarning maxfiy organlari ta’qibida bo‘lgan Ibrat ruxsat berilmadi.

Is’hoqxon Ibratning iste’dodli shoir bo‘lganini yuqorida ta’kidlagan edik. U uch — o‘zbek, fors va arab tillarida erkin ijod qildi. O‘z she‘rlarini to‘plab, devon tuzdi. She‘rlari vaqtli matbuot va bayozlarda bosilib chiqdi. Ulkan jadid jahon yozuvlari tarixiga bag‘ishlangan “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asarini yaratdi. Ushbu asar 132 betdan iborat bo‘lib, 1912-yilda muallifning o‘z bosmaxonasi “Matbaai Is’hoqiya”da nashr qilindi. Ibrat muarrix sifatida “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon uz-zamon” ilmiy asarlarini yaratgani ko‘pchilikka ma’lum.

Ibrat beqiyos til bilimdoni bo‘lib, jahonning o‘ndan ortiq tilini mukammal bilardi. Zamondoshini Ibrohim Davron “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1908-yil 56-sonida bosilgan maqolasida Is’hoqxon Ibratning “turkcha, forsha, hindicha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armancha va boshqa xatlar yozmoqqa mohir” ekanini iftixor bilan qayd etadi. Ibratning o‘zi esa “har bir lison safar ahlna yuz oltun barobarinda” turishini ta’kidlaydi. Ulug‘ jadidning “Lug‘ati ittati aslina” (“Olti tili lug‘at”) asari aynan shu shior asosida yuzaga keladi. Unga arabcha, forsha, hindcha, ruscha, usmonli turkcha, chig‘atoy turk(o‘zbek)cha so‘zlar lug‘ati jamlangan. Is’hoqxon “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining 1900-yilgi 98-sonida yerli o‘troq aholining til o‘rganishga qobiliyati kuchli ekanini alohida ko‘rsatadi. Yashirishning keragi yo‘q, xuddi Furqat va Sattorxon Abdug‘afforov kabi Ibrat ham yuqorida ta’kidlangan asarida rus madaniyati, tiliga qiziqish ustun ekanidan ko‘z yummaydi. Shunga qaramasdan, asar chor hukumatining Turkistondagi senzori, “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri N.P.Ostromov g‘aladonida bir necha oy yotgach, 1901-yili Toshkentdagi V.Ilin bosmaxonasida chop etildi.

Chet el hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishishni istagan Is’hoqxon ko‘plab sharq mamlakatlari bo‘ylab safarda bo‘ladi. Jidda, Istanbul, Sofiya, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarini kezadi. Ancha vaqt Afg‘onistonning Kobul, Arabistonning Jidda shahrida yashaydi. Ibrat Jiddada yashaganida musulmon sayyohlari asarlarini, xususan, Abu Hamid al-G‘arnotiy, Ibn Fadlon, Ibn Jubayr, ayniqsa, Ibn Battutaning “Tuhfat an-amsor va ajoyib al-isfor” ya’ni “G‘aroyib shaharlar va ajoyib safarlar haqida nazar sohiblariga tuhfa” asarini qunt bilan o‘rgandi. U Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlari — Bombay va Kalkuttada yashaydi. Bu yerda ko‘p ishlatiladigan arba’ lison, ya’ni to‘rt tili: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rganadi. 1896-yili Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so‘ngra Koshg‘arga o‘tadi va Namanganga qaytib keladi.

Is’hoqxon Ibratning yettinchi ibrati otasidan qolgan uch tanob yerda ajoyib bog‘ yaratganidir. Mazkur boqqa favvora qurdirib, uning to‘rt tomoniga qrim archasini o‘tqazadi. Eng chiroyli gul va buta ko‘chatlarini o‘stiradi. Osiyo va Ovrupro me‘morchiligi andozalarini omixta qilgan holda muhtasham imorat qurdiradi. Gulshanga “Is’hoqiya bog‘i” nomini beradi. Bog‘dagi imoratning peshtog‘iga “Uzmag‘ibul behud, bog‘bodin andisha qil!” deb she’riy shior yozdiradi.

Ibrat o‘titz to‘rt yoshida ona qishlog‘i To‘rao‘rg‘onga qaytadi. Barcha jadid ziyolilari safida turib, millat, mamlakat uchun jon kuydiradi, istiqloq yo‘lida yashab, badiiy ijod bilan shug‘ullanadi. 1897-1924-yillarda uzluksiz To‘rao‘rg‘on qozisi lavozimida faoliyat ko‘rsatib, bu hududda imkon qadar adolatning, haqiqatning ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi. Romanovlar ma’muriyati ham, bolsheviklar ham millatparvar, o‘z xalqiga foyda keltiruvchi ilg‘or fikr egalari — ziyolilarni “ovlash”, ularni birin-кетин yo‘qotish siyosatini avj oldiradi. Ibrat bolsheviklarning qora ro‘yxatiga tushadi. 1937-yilda yoshi bir joyga borib qolgan Is’hoqxon Ibrat “sovetlarga qarshi targ‘ibotchi” aybi bilan jo‘jabirday oilasi bag‘ridan yulib olinib, kaksaytarga qaramay, vodiydagi “Latta zavod” deb nomlangan qamoqxonaning sovuq, zax, tor xonalaridan biriga olib kelib tashlanadi. Buyuk inson shu qamoqxonada 75 yoshida vafot etadi. Ulug‘ musulmonga boshidagi sallasi kafan qilinib, turma yaqinidagi qabristonga dafn etiladi.

Mustaqillik yillaridan so‘ng Ibrat hayoti va ijodiga katta e’tibor qaratildi. 2005-yilda uning katta hajmdagi pedagogik hamda adabiy, ilmiy asarlari nashr etildi. 2017-yilda Namangan viloyati To‘rao‘rg‘on tumanida Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi ochildi. 2018-yili To‘rao‘rg‘onda Prezidentimiz tashabbusi bilan Ibrat nomidagi majmua tashkil etilib, u katta bog‘, uning o‘rtasida Is’hoqxon to‘ra Ibratning mahobatli haykali, milliy usulda ayvon, musiqli favvora, zamonaviy matbaa, bolalar bog‘chasi, chet tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 400 o‘rinli maktab-internat, tarixiy-me’moriy muzeydan iborat barpo etilgan obidalarini o‘z ichiga oldi. Davlatimiz rahbari 2022-yil 9-iyunda imzolagan qarorga binoan Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tashkil etildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa buyuk jadidlar qatori Is’hoqxon Ibrat yoqqan ma’rifat mash’alasi yana qo‘r oldi. Yangi O‘zbekiston bu mash’alani qayta yoqdi. Endi bu ma’naviy meros Uchinchi Rennessans manfaatlariga beminnat xizmat qilmoqda.

Farid USMON,  
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,  
“Do‘stlik” ordeni sohibi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarlari tahririyati” DM

MUASSIS:  
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan ko‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 129.  
38993 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 22:20 Topshirildi — 00:35

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.